

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSe.03/10.12.2019.L.16.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ABSAMATOV ASQAR ERGASHOVICH

TIJORAT BANKLARIDA ISLOMIY BANK XIZMATLARINI JORIY  
QILISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2024

UDK:336:330.3(575.1)

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) in  
economic sciences

**Absamatov Asqar Ergashovich**

Tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini joriy qilish amaliyotini  
takomillashtirish ..... 3

**Absamatov Asqar Ergashovich**

Совершенствование практики внедрения исламских банковских услуг  
в коммерческих банках..... 27

**Absamatov Asqar Ergashovich**

Enhancing the implementation of islamic banking services in commercial  
banks..... 53

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 57

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH  
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

**ABSAMATOV ASQAR ERGASHOVICH**

**TIJORAT BANKLARIDA ISLOMIY BANK XIZMATLARINI JORIY  
QILISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI

TOSHKENT-2024



Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2623.4.PhD/Iqt3463 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.ziyouz.uz](http://www.ziyouz.uz)) va «Ziyouz» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyouz.uz](http://www.ziyouz.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Xudoyqulov Xurshid Xurramovich  
iqtisodiyot fanlari doktori, profeccor

**Rasmiy opponenlar:** Ismailov Alisher Agzamovich  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:** Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.1.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 29 soat 18 daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, Tel.: (71) 239-28-72, Faks: (71) 239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1518 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, Tel.: (71) 239-28-72, Faks: (71) 239-43-51; e-mail: info@tdiu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 29-11 kuni tarqatildi.  
(2024-yil 29-11 daqiqa 78 raqamli restr bayonnomasi.)



Mexmonov  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, i.f.d., professor

U.V. G'afurov  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, i.f.d., professor

S.K. Xudoyqulov  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raii, i.f.d.,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosidagi global raqobatning kuchayishi istiqbolli soha va tarmoqlarga kiritiladigan investitsiyalar hajmining keskin oshishiga olib kelib, buning ta'sirida investitsiya faoliyatini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirishga talab ham sezilarli darajada kengayib bormoqda. "Jahon miqyosida umumiy aktivlari miqdori 2025-yilga kelib 5 trillion AQSH dollariga yetishi kutilayotgan islom moliyasi, pandemiya tufayli paydo bo'lgan to'siqlarga qaramay, hukumatlarning qo'llab-quvvatlovchi siyosati hamda islom moliya mahsulotlariga bo'lgan yuqori talab o'laroq ularning moliya bozorlaridagi ishtiroki chuqurlashdi va islom moliya tarmog'i barcha jabhalarda kengayishda davom etmoqda"<sup>1</sup>. Jahon iqtisodiyotining globallashuv sharoiti keltirib chiqargan zamonaviy moliya tizimi yangi tamoyillar va vositalarni joriy etish asosida milliy moliya bozorlarini diversifikatsiya qilish zarurligini talab qiladi.

Jahonda keyingi yillarda jadal rivojlanib borayotgan va jahon moliyaviy makonini egallab borayotgan islomiy moliya tizimiga oid izlanishlar keng miqyosda olib borilmoqda. Tijorat banklari faoliyatida islomiy bank xizmatlarini joriy etishning funksional elementlarini aniqlashtirish, tijorat banklari faoliyatida islomiy bank xizmatlarini joriy etishning me'yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, islomiy bank xizmatlarini joriy etish manbalarini shakllantirish, mazkur xizmatlarni joriy etishga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik tahlil qilish, milliy iqtisodiyotda tijorat banklari faoliyatida islomiy bank xizmatlarini joriy etishni takomillashtirish bu borada amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda islomiy banklar, sug'urta tashkilotlari, investitsiya jamg'armalarini tashkil qilish masalalariga muhim ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlis palatalariga yo'llagan Murojaatnomasida: "Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqt-soati yetib keldi. Bu borada Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi"<sup>2</sup>, deb ta'kidlab o'tildi. O'zbekistondagi biznes subyektlarining 80 foizi ichki manbalar hisobidan moliyalashtiriladi va ularning chorak qismigina kredit xizmatidan foydalanadi. Bank aktivlarining 85 foizi esa davlat banklariga tegishli va ularda kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish uchun sanoqli mahsulotlar mavjud. Shu bois, aksariyat korxonalar banklarni moliyalashtirishning afzal manbai deb hisoblamaydi. Bu esa biznes subyektlarining moliyaviy hisobotlarga yetarli darajada e'tibor bermasligi, soliq idoralariga taqdim etadigan rasmiy hisobotlarida esa aksariyat holatda haqiqiy soliq moliyaviy holatni ko'rsatmasligiga sabab bo'lmoqda. Shunga ko'ra, islomiy bank xizmatlari tushunchasining nazariy asoslarini yanada kengaytirish, murobaha shartnomasi asosida islom darchasi xizmatlari tomonidan yuridik shaxslarga

<sup>1</sup> <https://economy.mideast.com/news/islamic-banking-assets-to-hit-5-trillion-by-2025-data-reveals/>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>



mo'ljallangan asosiy vositalarni moliyalashtirish, mazkur maqsadlarga ajratilgan mablag'lar to'lovini barqaror ravishda amalga oshirish, tijorat banklarini islomiy moliyalashtirishga SOFR stavkalarining ta'sirini prognoz baholash muammolariga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 8-yanvardagi PF-5614-son "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2021-yil 30-dekabrda PQ-72-son "O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini joriy qilish amaliyotining nazariy-ilmiy, uslubiy va amaliy muammolari Gait A. and Worthington A., Iqbal Z., Mirakhor A., el-Gamal Mahmoud A., Rafik Yunus al-Misri, R.Stobaugh, R.Stoun, N.Abikayev, V.D.Andrianov, B.C.Bard, S.N.Buzulukov, I.N.Drogobiskiy, S.E.Sheretova, A.B.Belskiy, N.Berzon, Y.I.Vernadskiy, O.V.Tereshenko, V.V.Bocharov, E.I.Krillov, V.M.Vlasova, M.G.Egorova, D.A.Lavrik singari olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan<sup>3</sup>.

<sup>3</sup> Gait, A. and Worthington, A. An empirical survey of individual customer, business firms and financial institution attitudes towards Islamic methods of finance, International Journal of Social Economics, 35(11), 783-808. Iqbal Z., Mirakhor A. An introduction to Islamic finance: theory and practice. Singapore: John Wiley & Sons (Asia) Pte. Ltd., 2011.406 p., El-Gamal Mahmoud A. Islamic finance: law, economics and practice. Cambridge: Cambridge University press, 2006 year.222 p., Rafik Yunus al-Misri. Fikih imushchestvennykh otnosheniy. / per. s arab. [Fiqh property relations. / translated from Arabic] / D.Adzhi; redsovet: B.F.Mulyukov and others, - Moskva: Islamskaya kn., 2014. - P. 320., Stobaugh R. How to Analyze Foreign Investment Climates. -Harvard Business Review, September-October 1969.-p.189. Stoun R. Social Account at the Regional Level: a Survey. In: Regional Economic Planning. Techniques of Analysis for Less Developed Areas / Ed. By W.Isard and J.Camberland. OECD. Paris, 1961; Abikayev N. Investitsionnyy potentsial i ekonomicheskii rost (metodologicheskii aspekt). // Ekonomist. 2000. - № 6. - S. 58-66; Andrianov V.D. Rossiya: ekonomicheskii i investitsionnyy potentsial. M.: OAO «Izdatelstvo «Ekonomika», 1999. - 662s.; Bard B.C., Buzulukov S.N., Drogobiskiy I.N., Sheretova S.E. Investitsionnyy potentsial Rossiyskoy ekonomiki. - M.: Izdatelstvo «Ekzamen», 2003. - 320 s.; Bel'skiy A.B. Analiz investitsionnoy privlekatelnosti regionov // Sbornik nauchnykh trudov: Regionalnaya ekonomika problema i perspektivy. - M., 2003.-320 s.; 16. Berzon N. Formirovaniye investitsionnogo klimata v ekonomike // Voprosy ekonomiki. 2001. -№ 7. - S. 104-114.; Vernadskiy Y.I., Tereulenko O.V. Integratsiya finansovogo i promyshlennogo kapitala kak faktor rosta investitsionnogo potentsiala realnogo sektora ekonomiki // Region: ekonomika i sosiologiya. 2002. - № 1. - s. 97-102.; Bocharov V.V. Finansovo-kreditnye metody regulirovaniya rynka investitsiy. - M.: Finansy i statistika, 1993 - 158 s.; Krillov E.I., Vlasova V.M., Egorova M.G. i dr. Analiz finansovogo sostoyaniya i investitsionnoy privlekatelnosti predpriyatiya. - M.: Finansy i statistika, 2003. 192 s.; Lavrik D.A. Diagnostika regiona osnova dlya effektivnogo

Alohida ta'kidlash joizki, hozirgi sharoitda mamlakatda olib borilayotgan faol bank siyosatining istiqboldagi ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi o'jihatidan uni islomiy bank xizmatlarini joriy etish orqali rivojlantirishning ilg'or xorijiy tajribaga asoslangan holda yanada takomillashtirish bo'yicha tizimli qarorlar qabul qilishga bog'liq.

Tijorat banklari faoliyati hamda islomiy bank xizmatlarini joriy etishni rivojlantirishning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari o'zbekistonlik iqtisodchi olimlar E.T.Qodirov, J.K.Majidov, R.A.Musayev va Y.D.Magomedova, I.A.Zarirov, B.Jurayev, D.G.G'ozibekov, N.G'.Karimov, N.X.Jumayev, F.O'.Dodiyev, N.R.Qo'ziyeva, N.X.Xaydarov, SH.Mustafaqulov, R.B.Saidov, E.I.Nosirov, O'.A. Haydarov va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan<sup>4</sup>.

Alohida ta'kidlash joizki, hozirgi sharoitda islom moliya institutlari faoliyati rivojlangan bir qator davlatlarda islomiy bank xizmatlarini joriy etishning huquqiy tizimlar va bozor tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari tufayli islom moliyaviy xizmatlar bozori qatnashchilaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shunga asoslangan holda mamlakatimizda tijorat banklari faoliyatida islomiy bank xizmatlarini joriy etishni takomillashtirish bo'yicha tayyorlangan dissertatsiya ishlari, monografik tadqiqotlar, darslik va o'quv qo'llanmalar juda kam sonli bo'lib, ularning amaliy ahamiyati sezilarli darajada emas. Ushbu holat dissertatsiya mavzusini tanlashga asosiy sabab hisoblanadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalar bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatida islomiy bank xizmatlarini joriy etishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

razumeeniya investitsiy. // Sbornik nauchnykh trudov: Upravlenie ekonomikoy: metoda, modeli, texnologii. - Ufa: UGATU, 2001. - 246 s.

<sup>4</sup> Qodirov E.T., Majidov J.K. Xorijiy mamlakatlarda bank ishi. O'quv qo'llanma. - T., 2016 yil. 184 bet., Zaripov I.A. (2016) Islamskie finansy kak strategicheskii orientir razvitiya Rossii. / Zaripov I.A. (2016) Islamic finance as a strategic landmark for the development of Russia. <https://cyberleninka.ru>. Islomiy moliya va bank tizimi. - Toshkent: O'zbekiston, 2019-y. 138-bet., G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari. - T., 2002. i.f.d. diss. avtoref. 11-14 b. Karimov N.G'. Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari. - T.: Fan va texnologiya, 2007. - 240 b., Jumayev N.X. Kamabag'allik: Daromad tengsizligi yoki ta'lim olishga e'tiborsizlik. Maqola. //Xalq so'zi, 2020 yil 25 iyun. Dodiyev F.O'. Investitsion faoliyatini moliyaviy rag'batlantirish: iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. - Toshkent, 1998.-22 b.; Kuzieva N.R. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - T., 2008; Haydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari (xorijiy investitsiyali korxonalar misolida): iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. - Toshkent, 2003.- 22 b.; Mustafakulov SH.I. O'zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. i.f.d. (DSc). diss. avtoreferati. - T., 2017; Saidov R.B. O'zbekiston Respublikasi uy xo'jaliklarida investitsiyalashni takomillashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. - Toshkent, 2011.-18 b.; G'ozibekov D.G'. Nosirov E.I. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Risola. - T.: Iqtisod-moliya, 2007. - 92 b. Haydarov O'.A. Milliy iqtisodiyot doirasida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish yo'llari.



tijorat banklari faoliyatida islomiy bank xizmatlarini joriy etishning zarurligi va funksional elementlari asosida ilmiy-nazariy xulosalarni shakllantirish;

respublika tijorat banklari faoliyatida islomiy bank xizmatlarini joriy etish me'yoriy-huquqiy asoslarini tadqiq etish;

mamlakatda tijorat banklari faoliyatida islomiy bank xizmatlarini joriy etish manbalarini shakllantirish yo'llarini o'rganish;

tijorat banklari faoliyatida islomiy bank xizmatlarini joriy etishga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik tahlil qilish va shu asosida baho berish;

tijorat banklari faoliyatida islomiy bank xizmatlarini joriy etish usullarining ilg'or xorij tajribalarini o'rganish va O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

milliy iqtisodiyotda tijorat banklari faoliyatida islomiy bank xizmatlarini joriy etishni takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** O'zbekiston Respublikasidagi tijorat banklari, xususan, "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki faoliyatida islomiy bank xizmatlarini joriy etish jarayoni hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmetini** O'zbekiston Respublikasidagi mavjud tijorat banki faoliyatida islomiy bank xizmatlarini joriy etish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot vazifasini hal etishda ilmiy abstraksionalash, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, korrelyatsion va panel regression tahlil hamda iqtisodiy-matematik modellashirish usullaridan keng foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Uslubiy yondashuvga ko'ra "Islomiy bank xizmatlari", "islomiy bank mahsulotlari" va "tijorat operatsiyalarini islomiy moliyalashtirish" kabi tushunchalarga kengaytirilgan holda yondashuv hamda kapital qiymatini baholash mazmuniga ustunlik berilgan mualliflik ta'riflari taklif etilgan;

O'O'zbekistonda tijorat banklarini islomiy moliyalashtirishga SOFR (Secured Overnight Financing Rate) stavkalarining ta'sirini panel regression ekonometrik model asosida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishning uslubiy asoslari takomillashtirilgan;

Xususiy tarmoqni rivojlantirish bo'yicha Islom korporatsiyasi (ICD) orqali moliyaviy resurslarni jalb qilgan holda murobaha shartnomasi asosida Islom darchasi xizmatlari tomonidan yuridik shaxslarga mo'ljallangan asosiy vositalarni moliyalashtirishning ustama haqini 12 foizdan 14 foizga qadar belgilash orqali tijorat banklarining umumiy daromadini oshirishga asoslangan;

Murobaha shartnomasi asosida texnika, uskuna va binolarni moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag'larni yuridik shaxslar har uch oyda to'lovini o'z vaqtida amalga oshira olmagan hollarda yuridik shaxslar bankka to'lanishi kerak bo'lgan yillik summaning 10% miqdorida hisoblangan summani to'lash taklifi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tijorat banki faoliyatida islomiy bank xizmatlarini joriy etish samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy jihatlari asoslab berilgan;

an'anaviy va islomiy bank xizmatlari qiyosiy tahlil qilinib, hozirgi sharoitda O'zbekistonda islomiy bank xizmatlarini joriy etish zarurligi ko'rsatib berilgan;

tijorat banki faoliyatida islomiy bank xizmatlarini joriy etishning xorijiy mamlakatlar tajribasi va undan mamlakatimiz iqtisodiyotida qo'llash imkoniyatlari bayon etilgan;

tijorat banki faoliyatida islomiy bank xizmatlarini joriy etish usullari tasniflangan;

tijorat banki faoliyatida islomiy bank xizmatlarini joriy etish jarayonini diversifikatsiya qilishdagi imkoniyatlari yoritilgan;

milliy iqtisodiyotga islomiy bank xizmatlarini joriy etishni tatbiq qilish bo'yicha tavsiya va xulosalar berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchligi unda qo'llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, shuningdek, xalqaro tashkilotlarning ochiq statistik hisobotlaridan olinganligi hamda ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya ishida olingan ilmiy xulosa va nazariy-uslubiy tavsifdagi takliflardan tijorat banki faoliyatida islomiy bank xizmatlarini joriy etish yordamida moliyalashtirishni takomillashtirish orqali istiqbolda makroiqtisodiy barqarorlik va milliy iqtisodiyot doirasida raqobatbardoshlikni oshirishning nazariy-metodologik va uslubiy jihatlarni takomillashtirish, maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ilmiy ishning amaliy tavsifdagi natijalaridan tijorat banki faoliyatida islomiy bank xizmatlarini joriy etishni rivojlantirishda, xususan, tijorat banklari tomonidan islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirishga tadbirkorlar va aholining bo'sh mablag'larini jalb qilish maqsadida qabul qilinadigan qonun va qonunosti hujjatlari, Prezident farmonlari, qaror va farmoyishlar, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va sohaga oid boshqa me'yoriy hujjatlar, sohani samarali rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda, mazkur soha xodimlarining malakasini oshirish hamda oliy o'quv yurtlarining "Bank ishi", "Investitsiya", "Islomda bank ishi" fanlarining o'quv dasturlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy etilishi.** O'zbekiston Respublikasidagi mavjud tijorat banki faoliyatida islomiy bank xizmatlarini joriy etish bo'yicha ilmiy-uslubiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

Uslubiy yondashuvga ko'ra tijorat banklari faoliyatida islomiy bank xizmatlarini joriy etish bilan bog'liq harakatlar majmui sifatida ifodalovchi "Islomiy bank xizmatlari", "islomiy bank mahsulotlari" va "tijorat operatsiyalarini islomiy moliyalashtirish" tushunchasining mazmuni oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun mo'ljallangan "Moliya bozori va moliyaviy texnologiyalar" nomli



darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Termiz davlat universitetining 2024-yil 25-maydagi 205-PO'-sonli buyrug'i). Mazkur tushunchaning oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun yangi mazmunda kiritilishi bo'lg'usi mutaxassislarning islomiy bank xizmatlari va uni milliy iqtisodiyotimizga joriy etish borasidagi bilim va ko'nikmalarini kengaytirish imkonini yaratgan;

O'zbekistonda tijorat banklarini islomiy moliyalashtirishga SOFR (Secured Overnight Financing Rate) stavkalarini ta'sirini panel regression ekonometrik model asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishning uslubiy asoslarini takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy ma'lumotlardan oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun mo'ljallangan "Moliya bozori va moliyaviy texnologiyalar" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Termiz davlat universitetining 2024-yil 25-maydagi 205-PO'-sonli buyrug'i). Mazkur prognoz ishlab chiqish uslubini oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun joriy etilishi natijasida bo'lg'usi mutaxassislarning islomiy bank xizmatlari va uni milliy iqtisodiyotimizda joriy etish borasidagi bilim va ko'nikmalarini mamlakatimizda xorijiy investitsiyalar va kreditlar hamda moliyalashtirish manbalari bo'yicha tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hamda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmining istiqbolli ko'rsatkichlarini o'zaro muvofiqlashtirish bo'yicha nazariy-uslubiy ko'nikmalarni shakllantirish imkoni yaratilgan;

Xususiy tarmoqni rivojlantirish bo'yicha Islom korporatsiyasi (ICD) orqali moliyaviy resurslarni jalb qilgan holda murobaha shartnomasi asosida Islom darchasi xizmatlari tomonidan yuridik shaxslarga mo'ljallangan asosiy vositalarni moliyalashtirishning ustama haqini 12 foizdan 14 foizga qadar belgilash orqali tijorat banklarining umumiy daromadini oshirish taklifi "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki tomonidan amaliyotga joriy etilgan ("Turonbank" aksiyadorlik tijorat bankining 2024-yil 7-iyundagi 19/04-225-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida bankning umumiy daromadining oshishiga, bank xizmatlari tizimining rivojlanishiga, moliyaviy xizmatlar sifatlarini yaxshilashga va islomiy bank xizmatlarini taklif qilishga hamda mijozlar ehtiyojlarini to'liq ravishda qanoatlantirish imkoni yaratilgan;

Murobaha shartnomasi asosida texnika, uskuna va binolarni moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag'larni yuridik shaxslar har uch oyda to'lovini o'z vaqtida amalga oshira olmagan hollarda yuridik shaxslar bankka to'lanishi kerak bo'lgan yillik summaning 10% miqdorida hisoblangan summani to'lash taklifi "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki tomonidan amaliyotga joriy etilgan ("Turonbank" aksiyadorlik tijorat bankining 2024-yil 7-iyundagi 19/04-225-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida murobaha shartnomasi asosida texnika, uskuna va binolarni moliyalashtirilgan mablag'larni o'z vaqtida to'lashni ta'minlash, bank va xususiy tarmoqni rivojlantirish Islom korporatsiyasi (ICD) daromadlari oshishiga emas, balki islom korporatsiyasi (ICD) shariati kengashi tasdiqlagan xayriya fondini qo'llab-quvvatlash imkoni yaratilgan.

**Ilmiy tadqiqot natijalarining aprobat siyasi.** Dissertatsiyaning asosiy ilmiy va amaliy natijalari 7 ta ilmiy-amaliy konferensiyada, ulardan 4 tasi xalqaro tadbirlarda ma'ruzalar sifatida taqdim etildi.

**Tadqiqot natijalarini nashr etish.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, shundan 1 ta darslik va O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatiga kiritilgan jurnallarda 4 ta maqola, shu jumladan xorijiy mamlakatlarda 1 ta maqola, shuningdek xalqaro va respublika miqyosida 5 ta ma'ruza tezislari nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, 9 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 132 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmeti tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, nashr etilgan ishlar soni va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini joriy etishning nazariy asoslari**" nomli birinchi bobida tijorat banklari faoliyatida islomiy bank xizmatlarini joriy qilishning nazariy asoslari, tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini joriy etishning uslubiy jihatlari hamda tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini joriy qilishning xorijiy tajribasi bayon qilingan.

So'nggi yillarda turli iqtisodchi olimlarning ilmiy adabiyotlarida islom moliyasi, jumladan, islom bank xizmatlari mavzusi bo'yicha ko'plab tushunchalar va ilmiy izlanishlar mavjud. Quyida Islom bank xizmatlari iqtisod, moliya va islom huquqi sohalaridagi mashhur olimlar fikrlarini keltirib o'tamiz. Jumladan: pokistonlik mashhur iqtisodchi, islom iqtisodiyoti va moliyasi bo'yicha mutaxassis Muhammad Nejatulloh Siddiqiyning asarlarida islom moliyasining jihatlari, jumladan, islom banklarining ishlash mexanizmlari va tamoyillari keltirilgan<sup>5</sup>. Pokistonlik yana bir islomiy olim va iqtisodchi Muhammad Taqi Usmoniy bo'lib, u islomiy moliya va bank faoliyati bilan mashhur. U bu mavzuda ko'plab kitoblar va maqolalar yozgan. Xususan, «Usmoniy Fors ko'rfazida, islomiy moliya rivojlanishida muhim rol o'ynagan va 14 firma, jumladan, Bahrayn Markaziy banki va Abu-Dabi Islom bankining shariat kengashida o'rin olgan. U, shuningdek, Jiddadagi Islom fiqhi akademiyasi, ilg'or islomshunoslik banki a'zosi hisoblanadi va Usmoniy Pokistonda "Meezan Bank"ni tashkil qilganida islomiy bank konsepsiyasini yaratgan»<sup>6</sup>. Usmoniy tomonidan taklif qilingan asosiy

<sup>5</sup> Siddiqi M. N. et al. Riba, bank interest and the rationale of its prohibition. – Jeddah: Islamic Research and Training Institute, 2004.

<sup>6</sup> Usmani M. M. T. An introduction to Islamic finance. – Brill, 2021. – T. 20.



darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Termiz davlat universitetining 2024-yil 25-maydagi 205-PO<sup>4</sup>-sonli buyrug'i). Mazkur tushunchaning oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun yangi mazmunda kiritilishi bo'lg'usi mutaxassislarning islomiy bank xizmatlari va uni milliy iqtisodiyotimizga joriy etish borasidagi bilim va ko'nikmalarini kengaytirish imkonini yaratgan;

O'zbekistonda tijorat banklarini islomiy moliyalashtirishga SOFR (Secured Overnight Financing Rate) stavkalarini ta'sirini panel regression ekonometrik model asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishning uslubiy asoslarini takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy ma'lumotlardan oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun mo'ljallangan "Moliya bozori va moliyaviy texnologiyalar" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Termiz davlat universitetining 2024-yil 25-maydagi 205-PO<sup>4</sup>-sonli buyrug'i). Mazkur prognoz ishlab chiqish uslubini oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun joriy etilishi natijasida bo'lg'usi mutaxassislarning islomiy bank xizmatlari va uni milliy iqtisodiyotimizda joriy etish borasidagi bilim va ko'nikmalarini mamlakatimizda xorijiy investitsiyalar va kreditlar hamda moliyalashtirish manbalari bo'yicha tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hamda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmining istiqbolli ko'rsatkichlarini o'zaro muvofiqlashtirish bo'yicha nazariy-uslubiy ko'nikmalarni shakllantirish imkoni yaratilgan;

Xususiy tarmoqni rivojlantirish bo'yicha Islom korporatsiyasi (ICD) orqali moliyaviy resurslarni jalb qilgan holda murobaha shartnomasi asosida Islom darohasi xizmatlari tomonidan yuridik shaxslarga mo'ljallangan asosiy vositalarni moliyalashtirishning ustama haqini 12 foizdan 14 foizga qadar belgilash orqali tijorat banklarining umumiy daromadini oshirish taklifi "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki tomonidan amalga oshirilgan ("Turonbank" aksiyadorlik tijorat bankining 2024-yil 7-iyundagi 19/04-225-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amalga oshirilishi natijasida bankning umumiy daromadining oshishiga, bank xizmatlari tizimining rivojlanishiga, moliyaviy xizmatlar sifatlarini yaxshilashga va islomiy bank xizmatlarini taklif qilishga hamda mijozlar ehtiyojlarini to'liq ravishda qanoatlantirish imkoni yaratilgan;

Murobaha shartnomasi asosida texnika, uskuna va binolarni moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag'larni yuridik shaxslar har uch oyda to'lovini o'z vaqtida amalga oshira olmagan hollarda yuridik shaxslar bankka to'lanishi kerak bo'lgan yillik summaning 10% miqdorida hisoblangan summani to'lash taklifi "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki tomonidan amalga oshirilgan ("Turonbank" aksiyadorlik tijorat bankining 2024-yil 7-iyundagi 19/04-225-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amalga oshirilishi natijasida murobaha shartnomasi asosida texnika, uskuna va binolarni moliyalashtirilgan mablag'larni o'z vaqtida to'lashni ta'minlash, bank va xususiy tarmoqni rivojlantirish Islom korporatsiyasi (ICD) daromadlari oshishiga emas, balki islom korporatsiyasi (ICD) shariati kengashi tasdiqlagan xayriya fondini qo'llab-quvvatlash imkoni yaratilgan.

**Ilmiy tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy ilmiy va amaliy natijalari 7 ta ilmiy-amaliy konferensiyada, ulardan 4 tasi xalqaro tadbirlarda ma'ruzalar sifatida taqdim etildi.

**Tadqiqot natijalarini nashr etish.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, shundan 1 ta darslik va O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatiga kiritilgan jurnallarda 4 ta maqola, shu jumladan xorijiy mamlakatlarda 1 ta maqola, shuningdek xalqaro va respublika miqyosida 5 ta ma'ruza tezislari nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, 9 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 132 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmeti tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, nashr etilgan ishlar soni va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini joriy etishning nazariy asoslari" nomli birinchi bobida tijorat banklari faoliyatida islomiy bank xizmatlarini joriy qilishning nazariy asoslari, tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini joriy etishning uslubiy jihatlari hamda tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini joriy qilishning xorijiy tajribasi bayon qilingan.

So'nggi yillarda turli iqtisodchi olimlarning ilmiy adabiyotlarida islom moliyasi, jumladan, islom bank xizmatlari mavzusi bo'yicha ko'plab tushunchalar va ilmiy izlanishlar mavjud. Quyida Islom bank xizmatlari iqtisod, moliya va islom huquqi sohalaridagi mashhur olimlar fikrlarini keltirib o'tamiz. Jumladan: pokistonlik mashhur iqtisodchi, islom iqtisodiyoti va moliyasi bo'yicha mutaxassis Muhammad Nejatulloh Siddiqiyaning asarlarida islom moliyasining jihatlari, jumladan, islom banklarining ishlash mexanizmlari va tamoyillari keltirilgan<sup>5</sup>. Pokistonlik yana bir islomiy olim va iqtisodchi Muhammad Taqi Usmoniy bo'lib, u islomiy moliya va bank faoliyati bilan mashhur. U bu mavzuda ko'plab kitoblar va maqolalar yozgan. Xususan, «Usmoniy Fors ko'rfazida, islomiy moliya rivojlanishida muhim rol o'ynagan va 14 firma, jumladan, Bahrayn Markaziy banki va Abu-Dabi Islom bankining shariat kengashida o'rin olgan. U, shuningdek, Jiddadagi Islom fiqhi akademiyasi, ilg'or islomshunoslik banki a'zosi hisoblanadi va Usmoniy Pokistonda "Meezan Bank"ni tashkil qilganida islomiy bank konsepsiyasini yaratgan<sup>6</sup>. Usmoniy tomonidan taklif qilingan asosiy

<sup>5</sup> Siddiqi M. N. et al. Riba, bank interest and the rationale of its prohibition. – Jeddah: Islamic Research and Training Institute, 2004.


<sup>6</sup> Usmani M. M. T. An introduction to Islamic finance. – Brill, 2021. – T. 20.



tushunchalardan biri islom bankchiligida foizlarni (ribolarni) taqiqlash tamoyilidir. Islomda qarz mablag'laridan daromad olish adolatsiz hisoblanadi, shuning uchun Usmoniy Mudoraba (shiriklik), Ijara (lizing), Murobaha (savdo bitimi) va Sukuk (Islom obligatsiyalari) kabi muqobil moliyaviy vositalardan foydalanishni taklif qiladi.

Usmoniy islom bankchiligida axloqiy jihatlarni muhimligini ham ta'kidlaydi. Unda adolat, oshkorlik, hisobdorlik va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga amal qilishga chaqiriladi. Uning fikricha, bank operatsiyalari halollikka asoslanishi kerak. Usmoniy tomonidan taklif qilingan yana bir konsepsiya Islomiy Mudaraba bank shartnomasidir. U omonatchilar va banklar o'rtasidagi hamkorlikning ushbu shaklidan foydalanishni taklif qiladi, bunda banklar omonatchilar mablag'larini boshqaruvchi vazifasini bajaradi va o'z ishi uchun komissiya oladi.

Usmoniy, shuningdek, islomiy bank orqali ijtimoiy adolatni targ'ib qilishga e'tibor qaratadi. U iqtisodiy rivojlanishga yordam beradigan va jamiyatdagi tengsizlikni kamaytiradigan moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqishga chaqiradi. Muhammad Taqi Usmoniyning islom banki tushunchalari musulmon dunyosining ko'plab mamlakatlarida ushbu sohaning rivojlanishiga asos bo'ldi. Uning asarlari islom moliya bozori tamoyillari va amaliyotining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Islomiy bank xizmatlari foiz (ribo), haddan tashqari noaniqlik (g'aror) va axloqsiz investitsiyalarni taqiqlovchi shariat tamoyillariga muvofiq ishlab chiqilgan. Ushbu xizmatlar axloqiy, adolatli va shaffof moliyaviy yechimlarni taqdim etadi (1-rasm).



1-rasm. Islomiy bank xizmatlari<sup>7</sup>

<sup>7</sup> Muallif tomonidan tuzildi.  
12

Tijorat banklar bilan islom moliyasi banklari o'rtasidagi asosiy farqlar<sup>8</sup>

AN'ANAVIY BANK FAOLIYATI	ISLOM BANKI FAOLIYATI
Pul ayirboshlash va qiymatni saqlash vositasidan tashqari tovardir. Shuning uchun uni nominal qiymatidan yuqori narxda sotish va ijaraga berish ham mumkin.	Pul tovar emas, lekin u ayirboshlash vositasi va qiymatni saqlash vositasi sifatida ishlatiladi. Shuning uchun uni nominal qiymatidan yuqori narxda sotish yoki ijaraga berish mumkin emas.
Vaqt qiymati kapitalga foizlarni hisoblash uchun asosdir.	Tovar savdosidan yoki xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan daromad foyda olish uchun asos bo'ladi.
Bank mablag'laridan foydalangan holda tashkilot zarar ko'rgan taqdirda ham foizlar undiriladi. Shuning uchun u foyda va zararni taqsimlashga asoslanmagan.	Islom banki foyda va zararni taqsimlash asosida ishlaydi. Agar tadbirkor zarar ko'rgan bo'lsa, bank bu yo'qotishni qo'llanilgan moliyalashtirish usuliga qarab taqsimlaydi (Mudoraba, Musharaka).
Naqd pul mablag'larini berish, moliyalashtirish yoki aylanma mablag'larni moliyalashtirishda tovarlar va xizmatlar almashinuvi bo'yicha kelishuv tuzilmaydi.	Murobaha, Salam va Istisna shartnomalari bo'yicha mablag'larni taqsimlashda tovarlar va xizmatlar almashinuvi bo'yicha shartnomalar bajarilishi shart.
An'anaviy banklar pulni inflyatsiyaga olib keladigan tovar sifatida ishlatadi.	Islom banki savdo bilan bog'liq faoliyatdan foydalangan holda iqtisodiy tizimning real sektorlari bilan aloqa o'rnatishga intiladi. Chunki pul real aktivlar bilan bog'liq bo'lgani uchun u iqtisodiy taraqqiyotga bevosita hissa qo'shadi.
An'anaviy bank asosiy e'tiborni kreditlashga qaratadi.	Islom banki asosiy e'tiborni sarmoyaga qaratadi.
An'anaviy banklar faqat moliyaviy mezonlar asosida ish yuritadi.	Islom banklari investitsiyada axloqiy mezonlarga asoslanadi.
An'anaviy banklarning faoliyati inson omiliga (asosan kapitalizm nazariyalariga) asoslanadi.	Islom banklari faoliyati islom shariatining qoidalariga asoslanadi.
Investor yoki kreditor oldindan belgilangan foiz stavkasi bo'yicha savdo qiladi yoki daromadni kafolatlaydi.	Islom banklari kapitalning egasi bilan investor o'rtasida risk taqsimotini tasdiqlaydi.
An'anaviy banklar o'z mijozining ishonchli ekaniga ko'proq e'tibor beradi.	Ular loyihalarning moliyaviy imkoniyatlariga e'tibor qaratadi.
An'anaviy banklar ularga qo'yilgan barcha depozitlarni kafolatlashi kerak.	Islom banklari shaxsiy hisobvaraqlarga qo'yilgan pullarni kafolatlaydi, ammo mudoraba investitsiyalariga kafolat bermaydi, chunki boshqa tomonning yo'qotishlarini bo'lishadi.

<sup>8</sup> <https://bankers.uz> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi



Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslangan holda, bizning fikrimizcha, “islomiy bank xizmatlari – bu Islom huquqi (shariat) tamoyillariga muvofiq taqdim etiladigan hamda foyda va zararlarni teng miqdorda taqsimlash, foizlarni taqiqlash, pul ayirboshlash vositasi va qiymat o’lchovi orqali faoliyat yuritadigan moliyaviy xizmatlardir”. Shuningdek, “islomiy bank mahsulotlari – bu Islom huquqi (shariat) tamoyillariga muvofiq taqdim etiladigan moliyaviy mahsulotlar, xizmatlar va tegishli shartnomalardir”. Jumladan, “tijorat operatsiyalarini islomiy moliyalashtirish – bu Islom qonunlariga amal qiladigan tijorat operatsiyalarini moliyalashtirish hamda foyda va zararni taqsimlash hamda kreditorlar va investorlar tomonidan foizlarni undirish va to’lashni taqiqlashdir”.

Jahonda faoliyat yuritayotgan an’anaviy bank faoliyati bilan islomiy bank faoliyatining o’ziga xos jihatlari va farqlari mavjud bo’lib, ular quyidagi jadvalda o’z aksini topgan.

Islom bankini qonunlar asosida faoliyat yurituvchi mega-regulyator sifatidagi kredit banklari va milliy banklar majmui sifatida qarashimiz mumkin. Shariat va ijtimoiy yo’nalishga ega bo’lish, har bir alohida mamlakatda tasdiqlangan pul-kredit siyosati doirasida va pul resurslarini jamiyat manfaatlariga muvofiq qayta taqsimlashni ta’minlash asosiy vazifalardandir.

Dissertatsiyaning “Tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini joriy qilish holati tahlili” nomli ikkinchi bobida O’zbekiston tijorat banklarida islomiy bank mahsulotlarini joriy qilish tahlili, O’zbekiston tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini joriy holati tahlili hamda tijorat banklarini islomiy bank xizmatlariga ta’sir qiluvchi omillarning ekonometrik tahlili yoritib berilgan.

Tadqiqotimizda mamlakatimizda 2020-yilda 27 ta tijorat banklarida o’tkazilgan so’rovnoma doirasida banklarga islomiy bank xizmatlarini joriy etish bo’yicha savol berilgan va barcha banklar bir ovozdan ushbu islomiy bank xizmatlarini qo’llab-quvvatlashini ta’kidlaganlar. Ba’zi banklar mamlakatda islom banklari ochilishini qo’llab-quvvatlashlarini O’zbekiston aholisining tahminan 90 foizi musulmonlar ekanligi va bunday moliya mahsulotlariga biznes tarafidan talab yuqori ekanligi bilan izohlashgan. Xususan, 67% banklarda islom bank xizmatlarining joriy etishilishi juda ham kerak, sababi ushbu islomiy bank xizmatlarini an’anaviy bank xizmatlari o’rtasida raqobatni kuchaytiradi, sog’lom xizmatlar bozori rivojlanadi, islom davlatlaridan yirik miqdordagi investitsiya oqimining kirib kelishiga sabab bo’ladi. So’rovnomada 26% banklar islom moliyasi bank mahsulotlari tadbirkorlar uchun ham, aholi uchun ham yaxshi bo’ladi, sababi ularning yangi moliya mahsulotlari va xizmatlariga ehtiyoji borligini ko’rsatadi. So’rovnoma natijalariga ko’ra, 44,44% bank vakillarida tijorat banklarining islomiy bank xizmatlarini joriy qilish istagi bor, lekin bunga ularning imkoniyatlari yetarli emas deb, 44,44 foizi esa banklar islom moliyasining asosiy tamoyillarini bilishadi xolos, bu esa qisqa muddatda islom moliya tizimini joriy qilish uchun yetarli emas deb hisoblashlari ma’lum bo’ldi (2-jadval).

2-jadval  
O’zbekistonda islom bank tizimini tatbiq qilish imkoniyatlari<sup>9</sup>

Islom bank xizmatlarini qisqa muddatlarda joriy qilish uchun tijorat banklarida imkoniyatlar yetarlimi?	Soni	Foizi
Ha, ushbu sohada faoliyatimizni boshlash uchun bilimli mutaxassislarimiz yetarli	3	11,12%
Imkoniyatlar yetarli deb bo’lmaydi, ammo biz ushbu sohani rivojlantirishga tayyormiz	12	44,44%
Biz bu tizimning asosiy tamoyillariga bilimimiz, lekin ushbu yo’nalishda faoliyat boshlash uchun bu yetarli emas	12	44,44%
Bu sohada kerakli bilimlarga ega mutaxassislarimiz umuman yo’q	0	0,00%
<b>Jami</b>	27	100%

«Islom taraqqiyot banki» guruhi tarkibiga kiruvchi «Xususiy tarmoqni rivojlantirish Islom korporatsiyasi» (ISD) O’zbekistonning bir necha tijorat banklarida islom moliya mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etuvchi darchalarni («islom darchalari») ochish yuzasidan keng ko’lamli ishlar olib bormoqda.

Islom darchalari faoliyatini tushunish uchun birinchi navbatda islom bankchiligini an’anaviy bankchilikdan qanday farqlari borligi hamda taklif qilinayotgan xizmatlar va mahsulotlar turlarini bilib olish maqsadga muvofiq. Xususiy sektorni rivojlantirish bo’yicha Islom korporatsiyasi (ICD) bilan hamkorlik o’rnatib O’zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish va mamlakatimizning an’anaviy banklarida “islomiy darcha”lari tashkil etilib, banklarning taqdim etayotgan mahsulotlar diversifikatsiyasini ta’minlamoqda.

3-jadval

Xususiy sektorni rivojlantirish bo’yicha Islom korporatsiyasi (ICD) bilan hamkorlik o’rnatgan tijorat banklari<sup>10</sup>

Tijorat banklari nomi
“ASIA ALLIANCE BANK” ATB
“O’zsanoatqurilishbank” ATB
“Turonbank” ATB
“Xalq banki” AT
“Kapitalbank” ATB
“Orient Finans Bank” XATB
“Mikrokreditbank” ATB
“Aloqabank” AT
“Trastbank” ATB
“Ipak Yo’li Bank” AITB
“Hamkorbank” ATB

<sup>9</sup> [https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/migration/uz/UZB\\_Landscaping-IF-in-Uzbekistan\\_final.pdf](https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/migration/uz/UZB_Landscaping-IF-in-Uzbekistan_final.pdf)

<sup>10</sup> Muallif ishlanmasi



**“Turonbank” ATB tomonidan ICD kredit liniya mablag’lari hisobidan  
ajratilgan kredit mablag’lari to’g’risida ma’lumot  
2021-yil holatida<sup>1)</sup>**

Loyihaning maqsadi	Hudud nomi	Mablag’ kelib tushgan sana	ICD krediti (ming AQSH dollari)
Eshik va oyna mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish	QQR	02.12.2020 10.05.2021	1 000,0
Metal mahsulotlarini ishlab chiqarish	Qashqadaryo viloyati	02.06.2021	1 125,0
Avtomobil ehtiyot qismlarini ishlab chiqarish	Namangan viloyati	02.06.2021	401,0
Qurilish mollari ishlab chiqarish va maxsus texnika	Samarqand viloyati	10.05.2021	1 038,3
Yog’ ishlab chiqarishni tashkil etish	Samarqand viloyati	10.05.2021	1 950,0
Qishloq xo’jalik mahsulotlarini quritish uskunasini sotib olish	Samarqand viloyati	02.06.2021	1 410,0
Maxsus texnika sotib olish	Surxondaryo viloyati	02.06.2021	600,0
Qurilish material mahsulotlarini ishlab chiqarish	Toshkent viloyati	02.06.2021	655,0
Qishloq xo’jalik mahsulotlarini quritish uskunasini sotib olish	Toshkent viloyati	02.06.2021	1 420,0
Maxsus texnika sotib olish	Toshkent viloyati	02.06.2021	400,0
<b>JAMI</b>			<b>10 000</b>

4-jadval ma’lumotlardan ko’rinib turibdiki, 2021-yilda “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki Xususiy sektorni rivojlantirish islom korporatsiyasi liniyasi hisobidan 10 mln AQSH dollari ajratilgan. Mazkur mablag’lar murobaha shartnomasi asosida texnika, uskuna va binolarni moliyalashtirga yo’naltirilgan bo’lib, xususan, murobaha shartnomasi asosida eshik va oyna mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirishga 1 mln AQSH dollari mablag’ ajratilgan. Shuningdek, yog’ ishlab chiqarishni tashkil etishga esa, 1 950 mln AQSH dollari va qishloq xo’jalik mahsulotlarini quritish uskunasini sotib olishga 1 410,0 mln AQSH dollari hamda metall mahsulotlarini ishlab chiqarishga 1 125 mln AQSH dollari ICD kreditlari berilgan. Xulosa qilib shuni aytish joizki, “Turonbank” ATB tomonidan ICD kredit liniya mablag’lari hisobidan ajratilgan kredit mablag’lari asosan ishlab chiqarishni kengaytirishga va qishloq xo’jalik mahsulotlarini qayta ishlashga ajratilmoqda. Xususan, deyarli 70 foiz ICD kreditlari asosan ishlab chiqarishni kengaytirishga va qishloq xo’jalik mahsulotlarini qayta ishlashga yo’naltirilmoqda. Biroq, so’nggi yillarda ICD kreditlari boshqa sohalarini rivojlanishiga ajratilmoqda. Xususan, ICD kreditlari tibbiyot uskunalarini, quyosh panellarini sotib olish va ishlab chiqarish zavodi binosini sotib olish uchun berilmoqda.

<sup>1)</sup> “Turon” ATB hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

Islomiy bank xizmatlariga bo’lgan talabning yuqoriligi hamda aholi o’rtasida islom moliyasiga doir bilimlarning oshib borayotganini inobatga olgan holda “Turonbank” aksiyadorlik tijorat bankida ham Islom taraqqiyot banki guruhi tarkibiga kiruvchi Xususiy tarmoqni rivojlantirish bo’yicha Islom korporatsiyasi (ICD) hamkorlikda Islom darchasi faoliyati yo’lga qo’yilgan. Xususan, “Turonbank” aksiyadorlik tijorat bankida Xususiy tarmoqni rivojlantirish Islom korporatsiyasi (ICD) orqali moliyaviy resurslarni jalb qilgan holda murobaha shartnomasi asosida Islom darchasi xizmatlari tomonidan yuridik shaxslarga mo’ljallangan asosiy vositalarni moliyalashtirish ustama haqini 12 foizdan 14 foiz etib belgilash tartibi joriy etilgan.

Islom bank mahsulotlari jahon bozorida har yili barqaror o’sishni ko’rsatib kelmoqda. Mamlakatimizda ham bunday mahsulotlarga qiziqish ortib bormoqda. Biz o’z navbatida, global tendensiyalarga va mijozlarimiz talablariga e’tibor qaratamiz. Shu sababli ham islom moliya institutlari bilan keng ko’lamli loyihalarni amalga oshirib kelmoqdamiz. Bu mamlakatimizda tadbirkorlik va ijtimoiy sohalarining rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratadi.

Mamlakatimizda “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki Xususiy sektorni rivojlantirish Islom korporatsiyasi liniyasi hisobidan 5 yillik murobaha asosida moliyalashtirishni taklif etadi. Mazkur xizmat bank va Korporatsiya o’rtasida tuzilgan “Murobaha shartnomasi” asosida yo’lga qo’yildi. Ushbu kelishuv yurtimizdagi ko’plab tadbirkorlar tomonidan kutilgan va katta qiziqish bildirilayotgan Islom moliyasi tamoyillaridan biri bo’lgan murobaha asosida moliyalashtirish imkoniyatini berishi bilan ahamiyatlidir.

“Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki Xususiy sektorni rivojlantirish islom korporatsiyasi liniyasi hisobidan murobaha asosida moliyalashtirish amaliyotidan foydalanadi. Murobaha shartnomasi asosida xom-ashyo uchun 18 oyga kredit beriladi. Shuningdek, texnika, uskuna va binolar uchun 5 yil muddatga murobaha shartnomasi asosida kredit rasmilashtiriladi va mazkur kredit to’lovi har uch oyda to’lash shartlari bilan beriladi.

“Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki xom-ashyo sotib olishda murobaha shartnomasi asosida kreditlarning eng kam miqdori 100 ming AQSH dollari hamda eng ko’p miqdori 4 mln AQSH dollarigacha bo’lishi lozim. Shuningdek, texnika, uskuna va binolarni sotib olishda murobaha shartnomasi asosida kreditlarning eng kam miqdori 250 ming AQSH dollari hamda eng ko’p miqdori 5 mln AQSH dollarigacha bo’lish kerak.



5-jadval

